

**KATTA YOSHDAGI O'QUVCHILARNI O'QITISHDAGI
QIYINCHILIKLAR**

Adashboyeva Maxliyo Olim qizi

maxliyo@dashboyeva@gmail.com

+998-33-403-21-03

SamDCHTI Ingliz tili II fakulteti

2-bosqich talabasi

Umirqulova Zarnigor Nurmurod qizi

zarnigor@umirqulova@gmail.com

+998-93-494-10-30

SamDCHTI Ingliz tili II fakulteti

2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Pardayeva A.R

Annotatsiya: ushbu maqolada katta yoshdagilarga til o'rgatishda va ularning o'rganishda duch keladigan turli xil qiyinchiliklar haqida atroflicha ma'lumot beriladi. Bundan tashqari ular bilan ishlash usullari haqida ham misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: katta yoshdagilari, qiyinchiliklar, vaqt yetishmasligi, motivatsiya, darslik, individual, rag'batlantirish, xorijiy til.

Hozirgi kunda katta-yu-kichik uchun xorijiy tillarni o'rganish birdek dolzarb hisoblanadi. Sababi yurtimizda chet tillarini ayniqsa ingliz tilini biladigan o'quvchilarga ko'plab imkoniyatlar yaratilgan. Jumladan, agarda IELTS va CEFR imtihonlaridan B2 va undan yuqori ball to'plasa Oliy Ta'lim muassasalariga hujjat topshirgan kishilarga xorijiy til uchun maksimal ball beriladi hamda magistratura bosqichi uchun ham imtihonlarsiz qabul qilinadi. Bunda mutaxasisligi xorijiy tili bo'lganlar uchun C1 va undan yuqori, qolgan soha vakillari uchun esa B2 va undan yuqori darajadagi sertifikatlar talab qilinadi. Bu kabi imkoniyatlardan foydalanish

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

uchun barcha birdek harakat qilmoqda. Bu borada ko'pchilik chet tili o'qituvchilari katta yoshdagi kishilarga til o'rgatishda ko'plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Sababi kattalarning til o'rganishdan tashqari juda ko'plab tashvishlari va majburiyatlari bor va har qanday darsdan ham qoniqib ketavermaydi. Katta yoshdagi til o'rganuvchilar uchun dars muhitini ajoyib tarzda yaratish kerak. Dunyo tashvishlaridan charchab darsga kirganda hammasini unutib, kundalik hayotlaridan dam olish uchun darsga kelishi va darsdan nimadir o'rganib, xursand bo'lib chiqib ketishi lozim deb hisoblayman.

Bilamizki xorijiy tillar so'z yodlash ya'ni lug'at boyligini oshirish orqali o'rganiladi. Katta yoshdagi til o'rganuvchilarda esa mana shu yangi so'zlarni o'rganishga bo'lgan salohiyati pastroq bo'ladi. Bundan tashqari ularda vaqt yetishmovchiligi ham asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Sababi katta yoshdagi o'rganuvchilarda ish, oila va shaxsiy hayot kabi ko'plab tashvishlari bo'ladi. Buning natijasida ular har doim ham darsga tayyor bo'lib kelmasligi mumkin va bu holatda o'qituvchi hech qanday jazo turini qo'llay olmaydi. Bundan tashqari ba'zi kattalar darsliklardan foydalangan holda o'rganishni xohlamaydilar, chunki darsliklar yosh bolalar uchun deb hisoblaydilar. Shu sababli katta yoshdagi xorijiy til o'rganuvchilariga maxsus tayyorlangan materiallar asosida dars o'tgan maqlub o'yayman va bu materiallarda mavzuning asosiy qismlari berilishi kerak.

Motivatsiya ham bu o'rinda katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Katta yoshdagi o'quvchilar ko'pincha o'z qiziqishlari bilan emas balki turli xil zaruriyat bo'lgan vaqtda o'qishga majbur bo'lishadi. Kichik yoshdagi xorijiy tillarni o'rganuvchilarning o'qishlarini rag'batlantirib motivatsiya berib turuvchi ota-onalari bo'ladi ammo katta yoshdagi kishilar mustaqil hayotga qadam qo'yib bo'lganligi va ota-onasidan yiroqda yashaganligi sababli ularni qo'llab-quvvatlovchi va moliyaviy ta'minlovchi kishisi bo'lmaydi, hammasi uchun ularning o'zлari harakat qilishlari kerak. Ulamolardan biri aytganidek "Faqat ota-onamizgina o'zimiz uchun qilgan yaxshiliklarimiz uchun xursand bo'lib rag'batlantiradi". Misol uchun kichik yoshdagi o'quvchilar mакtabda 5 baho olsa ota-onalar ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida turli xil sovg'alar beradi yoki shirin

so'zlar orqali erkabal qo'yishadi, yoki bo'lmasa, davlat talim muassasalariga o'qishga qabul qilinsang senga xohlagan sharoitingni yaratib beraman degan va'dalar bilan bolani ruhlantiradi. Ammo katta yoshdagi xorijiy tillarni o'rGANUVCHILarda esa bunaqa qo'llab-quvvatlashlar va rag'batlantirishlar bo'lmaydi.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, katta yoshdagilar til o'rganish jarayonida ko'plab qiyinchiliklarga duch keladi. Masalan, vaqt, moliyaviy tomon, qo'llab-quvvatlab motivatsiya berib turuvchi kishining yo'qligi va asosiysi uyalish hissining ko'pligi. Ular omma oldida chet tilida gapirishga, ba'zan o'qituvchi bergen savollarga javob berishda xato aytib qo'ysamchi degan qo'rquvlar sabab tilni tezda o'rganib ketolmaydi. Mana shu kabi muammolarga yechim berish uchun ba'zan kattalar bilan individual holda shug'ullanish va o'z o'rnida guruhlarda ham ishslash anchagina samarali bo'ladi deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.theteflacademy.com>
2. <https://careerfoundry.com>
3. <https://english4tutors.com>
4. Adashboyeva M.O. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga xorijiy tillarni interfaol usullar orqali o'rgatish.2023.
5. Pardayeva A.R. Modern methods of teaching English in higher education. International scientific-online conference.